

Toshkent shahar Yangihayot tumanining demografik jarayonlari tahlili va 2035-yilgacha aholi soni prognozi

Husan Sattorov Sanjar o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti

Geografiya va geoaxborot tizimlari fakulteti

70530201 – Geografiya mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Email: whosunblack@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Toshkent shahrining eng yosh va jadal rivojlanayotgan hududlaridan biri bo'lgan Yangihayot tumanining 2021–2025-yillardagi demografik holati tahlil qilingan hamda aholi sonining 2035-yilgacha bo'lgan prognozi ishlab chiqilgan. Tadqiqotda aholining umumiy soni, jins va yosh bo'yicha tarkibi, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralishlar kabi tabiiy harakat ko'rsatkichlari hamda migratsiya jarayonlari o'rganilgan. Ma'lumotlar tahlili uchun statistik usullar, jumladan, demografik koeffitsientlarni hisoblash va eksponensial o'sish modelidan foydalanilgan. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, tumanda aholi soni yuqori sur'atlar bilan o'sib bormoqda, bu jarayonda ham tabiiy ko'payish, ham ijobiy migratsiya saldosini muhim rol o'ynamoqda. Tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqoriligi va aholining yosh tarkibi hududning demografik salohiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. Prognoz natijalariga ko'ra, aholi sonining hozirgi o'sish tendensiyalari saqlanib qolsa, 2035-yilga borib tuman aholisi 390 ming kishidan oshishi kutilmoqda. Ushbu topilmalar asosida ijtimoiy infratuzilmani rejalashtirish, mehnat bozorini tartibga solish va urbanizatsiya jarayonlarini boshqarish bo'yicha mahalliy hokimiyat organlari uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Abstract

This article analyzes the demographic situation of Yangihayot district, one of the youngest and most rapidly developing areas of Tashkent city, for the period of 2021–2025, and provides a population forecast up to 2035. The study examines the total population, its age-sex structure, vital statistics such as births, deaths, marriages, and divorces, as well as migration processes. Statistical methods, including the calculation of demographic coefficients and the exponential growth model, were used for data analysis. The analysis reveals that the district's population is growing at a high rate, driven by both natural increase and positive net migration. High birth rates and a young

population structure indicate significant demographic potential. According to the forecast, if current growth trends continue, the district's population is expected to exceed 390,000 by 2035. Based on these findings, practical recommendations are provided for local authorities on planning social infrastructure, regulating the labor market, and managing urbanization processes.

Kalit soʻzlar: demografiya, aholi soni, Yangihayot tumani, tugʻilish, oʻlim, migratsiya, prognoz, urbanizatsiya, tabiiy oʻsish, tugʻilishdagi jinsiy nisbat.

Kirish

Oʻzbekistonda mustaqillik yillarida demografik jarayonlarda muhim oʻzgarishlar yuz berdi. Aholining barqaror oʻsishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bevosita taʼsir koʻrsatmoqda. Bu jarayonlar, ayniqsa, poytaxt Toshkent va uning atrofidagi hududlarda yaqqol namoyon boʻlmoqda. 2020-yilda tashkil etilgan Yangihayot tumani Toshkent shahrining janubi-sharqiy qismida joylashgan boʻlib, u Sergeli, Bektemir tumanlari hamda Toshkent viloyatining Zangiota, Oʻrtachirchiq va Quyichirchiq tumanlari hududlarini birlashtirish orqali vujudga kelgan. Poytaxtga yaqinligi, yangi sanoat korxonalarini va turar-joy majmualarining jadal qurilishi tumanni muhim demografik va iqtisodiy markazga aylantirmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, ichki migratsiya oqimlarini kuchaytirib, aholi sonining tez oʻsishiga olib kelmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi Yangihayot tumanining qisqa vaqt ichida jadal rivojlanayotgani, aholi sonining intensiv oʻsishi bilan bogʻliq. Ushbu demografik oʻzgarishlarni oʻrganish va kelajakdagi tendensiyalarni prognoz qilish hududning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasini (maktablar, shifoxonalar, yoʻllar, kommunal xizmatlar) strategik rejalashtirish uchun ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi. Oʻzbekistonda demografik jarayonlarni oʻrganishga bagʻishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar mavjud. Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi tomonidan muntazam ravishda demografik yillik toʻplamlar nashr etiladi, ularda mamlakat va hududlar kesimida aholining tabiiy va mexanik harakati toʻgʻrisidagi maʼlumotlar keltirilgan. Biroq, Yangihayot kabi yangi tashkil etilgan va oʻziga xos demografik dinamikaga ega boʻlgan tuman boʻyicha maxsus tadqiqotlar deyarli mavjud emas.

Tadqiqot maqsadi – Yangihayot tumanining 2021–2025-yillardagi demografik holatini kompleks tahlil qilish va aholi sonining 2035-yilgacha boʻlgan prognozini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

- Aholi soni dinamikasi, jins va yosh tarkibini tahlil qilish.

- Tug‘ilish, o‘lim va tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlarini hisoblash va tendensiyalarni aniqlash.
- Migratsion jarayonlarning (ko‘chib kelish va ketish) aholi o‘shiga ta‘sirini baholash.
- Nikoh va ajralishlar sonidagi o‘zgarishlarni o‘rganish.
- Matematik modellashtirish asosida aholi sonining 2035-yilgacha bo‘lgan prognozini yaratish.

Tadqiqot obyekti – Yangihayot tumani aholisi.

Tadqiqot predmeti – tumandagi demografik jarayonlar (tug‘ilish, o‘lim, migratsiya, nikoh, ajralish) va ularning o‘zaro aloqadorligi.

Ma’lumotlar manbai – <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> saytidan olingan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan statistik jadvallar va grafiklar.

Materiallar va usullar

Tadqiqotning ma’lumotlar bazasi sifatida Yangihayot tumanining 2021-yildan 2025-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab olgan demografik ko‘rsatkichlari xizmat qildi. Tahlil qilingan asosiy ko‘rsatkichlar: doimiy aholi soni (erkaklar, ayollar), tug‘ilganlar soni (o‘g‘il va qiz bolalar), vafot etganlar soni (erkaklar, ayollar), ko‘chib kelganlar va ketganlar (xorijdan/xorijga), nikoh va ajralishlar soni.

Hisoblash usullari:

Aholi sonining prognozi uchun eksponensial oʻsish modeli qoʻllanildi:

$P_t = P_0 * (1+r)^t$, bu yerda:

P_t – prognoz qilinayotgan yildagi aholi soni;

P_0 – boshlangʻich yildagi aholi soni;


r – aholining oʻrtacha yillik oʻsish surʻati;

t – yillar soni.

r koeffitsienti $r = (P_b/P_a)^{1/(b-a)} - 1$ formulasi orqali aniqlandi, bu yerda P_a va P_b a , b yillardagi aholi soni.

Dasturiy taʼminot: Maʼlumotlarni qayta ishlash, jadvallar va grafiklar yaratish uchun Microsoft Excel dasturidan foydalanildi.

Yangihayot tumanida 2021–2025-yillar mobaynida aholi sonining barqaror va uzluksiz o‘shish tendensiyasi yaqqol namoyon bo‘lgan (1-rasm). 2021-yil boshida 132 800 kishini tashkil etgan doimiy aholi soni yillar davomida izchil ravishda ko‘payib bordi. Jumladan, 2022-yilda aholi soni 150 900 kishiga, 2023-yilda 161 100 kishiga, 2024-yilda esa 174 700 kishiga yetdi. 2025-yil boshiga kelib esa bu ko‘rsatkich 188 200 kishini tashkil etdi. To‘rt yillik davr mobaynida Yangihayot tumani aholisi jami 55 400 kishiga yoki boshlang‘ich ko‘rsatkichga nisbatan 41,7% ga ortgan. Bu poytaxt miqyosidagi eng yuqori o‘shish sur‘atlaridan biri bo‘lib, tumanning demografik jozibadorligidan dalolat beradi.



1-rasm. Yangihayot tumani doimiy aholisi soni dinamikasi (2021–2025-yillar)

Manba: Ushbu grafik <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> saytidan olingan statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tuman aholisi yosh va jins bo‘yicha tahlil qilinganda quyidagi demografik xususiyatlarni kuzatish mumkin (1-jadval).

Aholining gender tarkibida ayollar soni erkaklarga nisbatan biroz ko‘proq. Jumladan, tumanda 96 403 nafar (51%) ayol va 91 818 nafar (49%) erkak istiqomat qiladi. Bu holat umumiy aholi sonida ayollar ulushining yuqoriroq ekanligini ko‘rsatadi.

Tuman aholisining yosh tarkibi ancha yosh ekanligini ko‘rish mumkin. 0 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar umumiy hisobda 59 913 kishini tashkil etib, bu jami aholining deyarli 32 foiziga tengdir. Aholining eng katta qismini 40-49 yosh oralig‘idagi fuqarolar tashkil etadi, ularning soni 24 303 kishidir. Keyingi o‘rinlarda 8-15 (21 978 kishi) va 35-39 (18 022 kishi) yosh guruhlari joylashgan.

Yosh va jins nisbatida qiziqarli tendensiyalar kuzatiladi. 0 yoshdan 19 yoshgacha bo'lgan guruhlarda erkaklar soni ayollarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etadi. Biroq, 20-24 yoshdan boshlab ayollar ulushi ortib boradi va bu farq yoshi kattaroq guruhlarda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Xususan, 65 va undan katta yoshdagilar orasida ayollar aholining 65 foizini tashkil etadi. Bu, o'z navbatida, ayollar o'rtasida o'rtacha umr ko'rish davomiyligi erkaklarnikiga qaraganda yuqori ekanligidan dalolat berishi mumkin. Shu bilan birga, 30-49 yosh oralig'idagi guruhlarda erkaklar va ayollar soni deyarli teng (50%).

Xulosa qilib aytganda Yangihayot tumani demografik jihatdan yosh va o'sib borayotgan hudud sifatida tavsiflanadi. Bolalar va mehnatga layoqatli yoshdagi aholining yuqori ulushi tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Yosh guruhlari bo'yicha gender nisbatining o'zgarishi esa umumiy demografik qonuniyatlarga mos keladi.

1-jadval

**Yangihayot tumani aholisining yosh-jins ma'lumotlari
(2025-yil boshiga berilgan)**

Yosh	Erkaklar	Erkaklar ulushi (%)	Ayollar	Ayollar ulushi (%)	Jami
0-2	8 271	52	7 663	48	15 934
3-5	5 758	52	5 408	48	11 166
6-7	3 263	52	2 977	48	6 240
8-15	11 398	52	10 580	48	21 978
16-17	2 479	51	2 356	49	4 835
18-19	2 355	51	2 255	49	4 610
20-24	5 735	48	6 191	52	11 926
25-29	6 842	48	7 312	52	14 154
30-34	8 596	50	8 527	50	17 123
35-39	9 024	50	8 998	50	18 022
40-49	12 207	50	12 096	50	24 303
50-59	8 058	47	9 054	53	17 112
60-64	3 181	42	4 450	58	7 631
65+	4 651	35	8 536	65	13 187
Jami	91 818	49	96 403	51	188 221

Manba: Ushbu jadval <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> saytidan olingan statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yangihayot tumanida tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lib, aholi o‘shining muhim omillaridan biri bo‘lib xizmat qilmoqda (2-jadval). 2021-yilda 3 744 nafar bola tug‘ilgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 5 499 nafarga yetgan (46,8% o‘shish).

2-jadval

Yangihayot tumanida tug‘ilish ko‘rsatkichlari (2021–2024-yillar)

Yil	Jami tug‘ilganlar	O‘g‘il bola	Qiz bola	Tug‘ilish koeffitsienti	Tug‘ilishdagi jinsiy nisbat
2021	3 744	1 969	1 775	26,4	111
2022	3 747	1 953	1 794	24,0	109
2023	5 744	2 970	2 774	34,2	107
2024	5 499	2 890	2 609	30,3	111

Manba: Ushbu jadval <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> saytidan olingan statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tug‘ilishning umumiy koeffitsienti (TUK) tahlil qilinayotgan davrda barqaror yuqori darajada bo‘lgan – 24% dan 30,3% gacha. Bu ko‘rsatkich Toshkent shahri va respublika o‘rtacha ko‘rsatkichlaridan ancha yuqori bo‘lib, tuman aholisining yosh tarkibi (nikoh yoshidagi yoshlarning ko‘pligi) va yangi qurilgan uy-joylarga asosan yosh oilalar ko‘chib kelayotgani bilan izohlanadi. Tug‘ilganlar jinsiy nisbati o‘rtacha 100 qiz bolaga 107-111 o‘g‘il bola to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi. UNFPA (2010) ma’lumotlariga ko‘ra tug‘ilishdagi jinsiy nisbat normasi 100 qiz bolaga 104–106 o‘g‘il bola deb qabul qilinadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki tumandagi ushbu ko‘rsatkich normadan biroz yuqori.

Tuman aholisi orasida o‘lim darajasi past ko‘rsatkichlarga ega. Vafot etganlar soni 2022-yilda 472 nafarni, 2024-yilda esa 534 nafarni tashkil etgan. O‘limning umumiy koeffitsienti (O‘UK) o‘rtacha 3,9% bo‘lib juda past darajada saqlanib qolgan. Bu holat, birinchi navbatda, aholi tarkibida keksalar ulushining kamligi va yoshlar salmog‘ining yuqoriligi bilan bog‘liq.

Yuqori tug‘ilish va past o‘lim darajasi aholining yuqori sur‘atlarda tabiiy ko‘payishini ta’minlamoqda. Tabiiy ko‘payish 2022-yilda 3 275 kishini, 2024-yilda esa 4 965 kishini tashkil etgan. Tabiiy ko‘payish koeffitsienti (TKK) o‘rtacha 24,9% atrofida bo‘lib, bu juda yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi va tumanning demografik salohiyati katta ekanligini tasdiqlaydi.

Aholining umumiy o‘shida tabiiy ko‘payish bilan bir qatorda migratsiya jarayonlari hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Tuman tashkil etilganidan buyon doimiy ravishda ijobiy migratsiya saldosiga ega bo‘lgan (3-jadval).

Yangihayot tumanida migratsiya ko‘rsatkichlari (2021–2024-yillar)

Yil	Ko‘chib kelganlar (jami)	Ko‘chib kelganlar (xorijdan)	Ko‘chib ketganlar (jami)	Ko‘chib ketganlar (xorijga)	Migratsiya saldosi
2021	17 086	17	1 827	201	15 259
2022	10 098	6	3 194	65	6 904
2023	12 292	28	3 916	94	8 376
2024	12 903	7	4 344	68	8 559


Manba: Ushbu jadval <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> saytidan olingan statistik ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, har yili tumanga respublikaning boshqa hududlaridan va qisman xorijdan minglab odamlar ko‘chib kelmoqda. Migratsiya saldosi doimiy ijobiy bo‘lib, aholi o‘shining asosiy drayverlaridan biriga aylangan. Tuman tashkil etilganidan so‘ng Toshkent viloyatidan o‘tgan hududlarda istiqomat qiluvchi aholining o‘z yashash joyini yangi tashkil etilgan tumanga o‘zgartirishi hamda yangi uy-joy massivlarining qurilishi 2021-yildagi o‘ta yuqori ko‘rsatkich bilan tavsiflanadi.

Nikoh va ajralishlar soni oilaviy demografiya holatini aks ettiradi. Tumanda nikohlar soni barqaror o‘sib bormoqda (2022-yilda 958 ta, 2024-yilda 926 ta). Ajralishlar soni esa nisbatan kam bo‘lib, 2022-yilda 168 tani, 2024-yilda esa 193 tani tashkil etgan. Nikohlarning ajralishlarga nisbati (taxminan 5:1) oila institutining nisbatan barqarorligini ko‘rsatadi, ammo ajralishlar sonidagi kichik o‘sh tendensiyasi ham kuzatilmoqda.

Yangihayot tumanida aholining umumiy o‘shishi ikki asosiy komponent – tabiiy ko‘payish va migratsion o‘shish hisobiga ta’minlanmoqda.


Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tumanning jadal urbanizatsiyasi va iqtisodiy jozibadorligi tufayli aholi o‘shida migratsiya komponentining roli tabiiy ko‘payishdan ham yuqoriroq turadi (2-rasm). Bu holat poytaxt aglomeratsiyasiga xos xususiyatdir.



2-rasm. Yangiheyot tumanida aholi o'lishi komponentlarining ulushi (2024)

Manba: Ushbu doiraviy diagramma <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> saytidan olingan statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mavjud demografik tendensiyalar (2021–2025-yillardagi o'rtacha yillik o'lish sur'ati $r = 0.0764$ yoki 7,64%) asosida eksponensial o'rish modeli yordamida aholi sonining 2035-yilgacha bo'lgan prognozi ishlab chiqildi (3-rasm).



3-rasm. Yangiheyot tumani aholisi sonining prognozi (2025–2035-yillar)

Manba: Ushbu grafik <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2> saytidan olingan statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Prognoz natijalariga ko'ra, agar hozirgi o'sish sur'atlari saqlanib qolsa, Yangihayot tumani aholisi 2030-yilga kelib 272 ming kishidan, 2035-yilga kelib esa 393 ming kishidan oshishi mumkin. Bu juda yuqori o'sish bo'lib, tumanning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasiga jiddiy yuklama hosil qiladi.

Olingan natijalar Yangihayot tumanini O'zbekistonning eng tez o'sayotgan hududlaridan biri sifatida tavsiflaydi. Bu jarayon "demografik portlash" va intensiv urbanizatsiyaning klassik namunasi. Tuman demografik o'tish nazariyasining ikkinchi va uchinchi bosqichlari orasida turibdi, ya'ni o'lim darajasi keskin pasaygan, ammo tug'ilish hali ham yuqori darajada saqlanmoqda. Bu holat respublikaning qishloq hududlaridan farqli o'laroq, kuchli migratsion oqim bilan to'ldirilmoqda. Bu esa o'z navbatida, uy-joy, ish o'rinlari, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalariga bo'lgan talabni keskin oshiradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Yangihayot tumani aholisi 2021-2025-yillarda yuqori sur'atlar bilan o'sib, poytaxtning eng dinamik rivojlanayotgan hududiga aylandi.

Aholi o'sishining asosiy omillari – yuqori darajadagi tabiiy ko'payish (tug'ilishning o'limdan sezilarli darajada ustunligi) va respublikaning boshqa hududlaridan kelayotgan migrantlar oqimi hisobiga yuzaga kelgan ijobiy migratsiya saldosidir.

Aholining yosh tarkibi (bolalar va yoshlar ulushining yuqoriligi) kelgusi yillarda ham yuqori demografik o'sish salohiyati saqlanib qolishini ta'minlaydi.

Aholi sonining prognozi 2035-yilga borib hozirgi ko'rsatkichning ikki barobardan ko'proqqa oshishini ko'rsatmoqda, bu esa hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda bir qator chaqiriqlarni yuzaga keltiradi.

Tavsiyalar:

Mahalliy hokimiyat organlari uchun: Aholi o'sish sur'atlarini hisobga olgan holda, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, oilaviy poliklinikalar va shifoxonalar qurilishining uzoq muddatli rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Shaharsozlik va kommunal xizmatlar: Yangi turar-joy massivlarini barpo etishda yo'l-transport infratuzilmasi, jamoat transporti tarmog'ini kengaytirish, ichimlik suvi, elektr energiyasi va gaz ta'minoti quvvatlarini oshirish zarur.

Iqtisodiy siyosat: Aholining mehnatga layoqatli qismini ish bilan ta'minlash uchun tumanda yangi sanoat korxonalari, xizmat ko'rsatish sohalari va kichik biznes subyektlarini tashkil etishni rag'batlantirish.

Migratsiyani boshqarish: Migratsiya oqimlarini tartibga solish, kelgan aholining ijtimoiy adaptatsiyasi uchun sharoitlar yaratish.

Ushbu tadqiqot Yangihayot tumanining demografik kelajagini bashorat qilish va barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi “Toshkent shahar tarkibida Yangihayot tumanini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4888-sonli qarori. (<https://lex.uz/docs/-5094720>)
2. UNFPA. Sex Ratio at Birth in South East Asia with a Focus on Viet Nam: An Annotated Bibliography Designed to Guide Further Policy Research. Ha Noi: United Nations Population Fund (UNFPA), 2010. (<https://share.google/DHF2DtLyx2MWhPNFn>)
3. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
4. <https://www.toshstat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Exponential_growth
6. <https://www.investopedia.com/terms/e/exponential-growth.asp>